

# Qoraqalpog‘iston qattiq maishiy chiqindilar loyihasi

Mamlakat	O‘zbekiston
Loyiha raqami:	50696
Faoliyat sohasi:	Mahalliy va ekologik infratuzilma
Bildirishnoma turi:	Davlat
Ekologik toifasi:	B
Tasdiqlanish muddati sanasi:	2021-yil 24-noyabr
Qaysi bosqichdagi:	Yakuniy muhokamadan o‘tgan, tasdiqlash kutilmoqda
Loyihaning qisqacha mazmuni ingliz tilida chop etilgan sana:	2021-yil 13-aprel

## Loyiha mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga qarashli Qoraqalpog‘iston “Toza hudud” davlat unitar korxonasi (“Loyiha Korxonasi”) Qoraqalpog‘istonda qattiq chiqindilarni boshqarish (“QCHB”) infratuzilmasini modernizatsiya qilishni (“Loyiha”) moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasiga 70 million AQSH dollarigacha (57,8 million yevrogacha) bo‘lgan suveren kredit ajratish.

## Loyiha maqsadi

Bu kredit mablag‘lari Yevropa Ittifoqi standartlariga mos bo‘lgan chiqindi poligonlari, chiqindilarni saralash shoxobchalari, chiqindilarni tashish stantsiyalari qurish, shuningdek, maxsus texnika va transport vositalarini yetkazib berish uchun sarflanadi. Mazkur Loyiha sog‘liqni saqlash va atrof-muhitga katta foyda keltirishi barobarida dimlangan gaz chiqindilarining kamayishiga hissa qo‘shishi kutilmoqda.

## O‘tish davri ta’siri

ETI 62

Dastlabki o‘tish davri bo‘yicha sifati: Yashil. Loyiha Yevropa Ittifoqi talablariga mos bo‘lgan chiqindi poligonlari, chiqindilarni saralash shoxobchalarini qurish orqali mintaqada chiqindilarni boshqarish bo‘yicha barqaror amaliyotni joriy etish yordamida resurs samaradorligining oshirilishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, bu loyiha dimlangan gaz chiqindilarini kamaytirishga hissa qo‘shishi va bu orqali kishilar salomatligi va atrof-muhitga katta foyda keltirishi kutilmoqda. Loyihaning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi ulushi 100 foizni tashkil qiladi.

Ikkilamchi sifati - Inklyuziv. Bank Qo‘mitaga mahalliy kasb-hunar maktablari bilan hamkorlikda mintaqadagi yoshlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturini ishlab chiqishda yordam beradi. Qattiq chiqindilarni boshqarish sohasidagi o‘rta va yuqori malakali ish o‘rinlari uchun zarur bo‘lgan bozor talabiga asoslangan texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish va yashil ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Bank Loyiha Korxonasi erkaklar ustunlik qiladigan kasblarda ayollarning vakilligini ko‘paytirish uchun teng imkoniyatlar bo‘yicha harakat rejasini ishlab chiqishda ko‘maklashadi.

## Mijoz haqida

O'ZBEKISTON SUVEREN

## YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

70 000 000.00 AQSH dollari

O'zbekiston Respublikasiga, Loyiha Korxonasi manfaati uchun 70 million AQSH dollarigacha bo'lgan kredit.

## Loyihaning umumiy qiymati

USD 79 950 000,00

## Qo'shimchalilik sharti

Moliyalashtirish tuzilmasi: YTTB bu kredit uchun o'rtacha bozor ko'rsatkichidan ko'proq to'lash muddati va imtiyozli davr taklif qiladi, bu esa, loyihaning risoladagidek ishga tushib olishi uchun muhim omil sanaladi. YTTBning bu mablag'lari moliyalashdagi tanqislikni bartaraf qilish uchun zarurdir. Shu bilan birga, YTTB xalqaro moliya muassasalari, hukumat, tijorat banklari kabi tashkilotlarning boshqa moliyaviy manbalarni bozordan siqib chiqarmaydi va/yoki ularni to'ldirmaydi.

Xavflarni kamaytirish: YTTB tabiiy kapital aktivlarining kamayishi, xom ashyo va suv resurslaridan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq xavf-xatarlarni aniqlash va ularni boshqarishda mijozga yordam berish orqali unga atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv xavflarini kamaytirishga ko'maklashadi.

Standartlarni belgilash: loyihalar va mijozlarga yanada yuqori standartlarga erishish uchun ko'mak. Mijoz YTTBdan oddiy biznes yuritish sohasidagina emas, balki yuqori ekologik standartlar borasida ham alohida (masalan, chiqindilar bo'yicha standartlar, iqlimga oid ISO standartlarini qo'llash borasida) maslahatlar so'rab murojaat qiladi.

## Ekologik-ijtimoiy xulosa

Loyiha B toifasiga kiritildi (ESP 2014). Loyihaning ekologik va ijtimoiy ekspertizasi (ESDD) mustaqil konsultantlar tomonidan amalga oshirildi va loyiha ob'ektlari uchun eng maqbul joyni tanlash uchun taklif qilingan chiqindi poligonlar va hozirgi chiqindi poligonlarga tashriflarni, chiqindilarni qayta ishlash, mavjud hujjatlar va taklif qilingan chiqindi poligonlar dizaynini ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan loyiha korxonasi vakillari bilan suhbatlarni o'z ichiga oldi. Loyihaning mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari faqat ma'lum hududlarda va vaqtincha bo'lishi, shu bilan birga loyihaning amalga oshirilishi tufayli chiqindilarni boshqarish standartlari takomillashishi va buning natijasida esa, mintaqadagi sanitariya-epidemiologiya holati yaxshilanishi aniqlandi. Hozirda O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi talablariga javob beradigan chiqindi poligonlari mavjud emas va mavjud chiqindi poligonlarida, odatda, chiqindilar va gazlar tegishli tartibda filtrlanmaydi.

Loyiha Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va chiqindi poligonlari va chiqindilarni tashish stantsiyalari dizayni Yevropa Ittifoqining chiqindi poligonlari direktivasi va chiqindilarni tozalash inshootlari uchun mavjud bo'lgan eng yaxshi ommabop texnologiyalarga oid xulosalariga asoslangan. Nukus shahridan 4 km uzoqlikdagi foydalanilmaydigan erlarga yangi poligon tashkil etish, uchta chiqindi poligonini, chiqindilarni tashish stantsiyalarini tiklash

va modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Poligonlarda chiqindilarni saralash va kompost qilish qurilmalari bo'ladi. Yangi inshootlar ishga tushgach, 14 ta amaldagi chiqindixona yopiladi. Yangi va takomillashtirilgan poligonlar tuproq va er osti suvlarining sifatiga ta'sirini kamaytiradi, hidlar, atmosferaning ifloslanishini va shovqin darajasini nazorat qiladi. Bu to'g'ri boshqariladigan qattiq chiqindilarning yiliga 330 ming tonnagacha ko'payishiga va issiqxona gazlarining yiliga 43ktCO<sub>2</sub>e atrofida kamayishiga olib keladi. Loyiha dizayni chiqindilarni qayta ishlash va kompost chiqindilarini ajratish uchun saralash zavodlarini nazarda tutadi.

Batafsil Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi (ESAP) hozirda Bank ko'rib chiqqandan so'ng yakunlanmoqda va Kengash taqdim etishidan oldin mijoz bilan kelishib olinadi. U mijozning Yevropa Ittifoqining amaldagi standarti va ishlash talablariga muvofiq loyihani amalga oshirish va boshqarish qobiliyatini oshirish choralari o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, qurilish, transport va boshqa xizmat pudratchilarining Bankning ishlash talablariga rioya qilishini ta'minlash uchun pudratchilarni boshqarish tartibini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Shuningdek, mijoz Bank talablariga muvofiq ishchilarning shikoyat qilish mexanizmini ishlab chiqishi va tarqatishi kerak bo'ladi. Loyihani amalga oshirish guruhi ESAPni amalga oshirishda yordam beradi. Bank korporativ rivojlanish dasturi bilan ko'maklashadi. ESAPni amalga oshirish uchun qo'shimcha texnik yordam ko'rsatilishi ham ko'rib chiqilmoqda.

## **Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish**

Imzolashdan oldingi texnik hamkorlik:

Loyiha uchun texnik iqtisodiy asoslash texnik, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ekspertizani o'z ichiga oladi. 440 000 yevrogacha bo'lgan loyiha topshirig'i bo'yicha xarajatlar YTTB Ta'sischilarining maxsus fondi ("SSF") tomonidan moliyalashtiriladi.

Yashash uchun zarur vositalarni tiklash / qayta joylashtirish tizimini tayyorlash. Bu loyiha topshirig'i 72 000 yevroga baholangan bo'lib, u YTTB SSF tomonidan moliyalashtiradi. Topshiriq, shuningdek, Xorazm qattiq maishiy chiqindilari loyihasi ham qamrab oladi (OpID 50697).

Imzolashdan keyingi texnik hamkorlik:

Loyiha Korxonasining institutsional, amaliy va moliyaviy salohiyatini oshirish uchun uning xo'jalik faoliyatini rivojlantirish dasturi. Bu loyiha topshirig'i 200 000 yevroga baholangan bo'lib, u xalqaro donor yoki YTTB SSF tomonidan moliyalashtiriladi.

Mintaqadagi yoshlar uchun malaka oshirish dasturi. Bu loyiha topshirig'i 60 000 yevrogacha baholangan bo'lib, ikki tomonlama donor yoki SSF tomonidan Gender va Iqtisodiy Inklyuziya Texnik ko'mak mexanizmi doirasida moliyalashtirilishi taklif qilingan.

## **Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot**

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi –

Husniddin Allayarov

xusniddin.allayarov@eco.gov.uz

+998-71-207-0770 (Ichki raqam:7006)

<https://www.uznature.uz/>

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, To'ytepa ko'chasi 2A-uy

## Loyihaning qisqacha mazmuni so‘nggi marta yangilangan sana

2021-yil 10-sentyabr

### O‘tish davri nima

O‘tish davri ta‘sirini baholash bo‘yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo‘shimcha ma‘lumotni [mana bu havolada](#) olishingiz mumkin.

### Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo‘lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog‘laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o‘ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

### Umumiy ma‘lumotlar

Aniq so‘rovlar [YTTB so‘rovlar shakli](#) dan foydalangan holda berilishi mumkin.

### Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o‘zining “ekologik jihatdan mas‘ul va barqaror rivojlantirish” tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo‘lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo‘llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta‘minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko‘rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta‘sirining mohiyati va ko‘lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug‘ilganda, YTTB o‘z mijozlaridan qo‘shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta‘silari haqida ma‘lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika choratadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) electron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

## Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvini bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun

loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun [ipam@ebrd.com](mailto:ipam@ebrd.com) electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.